

Science Uzbekistan

INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV

"Global Prospects for Multidisciplinary Research and Education"

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

April 07-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



UPI

The
Education
University



Excellence in
Learning Innovation



PROCEEDINGS BOOK

Volume-3

Editors

Prof. Dr. Jabbor Usarov

Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev

Mutabar Meylieva

Kibrio Burieva

ISBN: 979-8-89695-061-5



PROCEEDINGS BOOK

Volume-3

Science Uzbekistan INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV

"GLOBAL PROSPECTS FOR MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND EDUCATION"

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

April 08-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan

Based on Order No. 490 of the Minister of Higher Education, Science and Innovation dated
December 27, 2024

Editors

Prof. Dr. Jabbor Usarov

Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev

Mutabar Meylieva

Kibrio Burieva

30.04.2025

by Liberty Academic Publishers, New York, USA

ALL RIGHTS RESERVED NO PART OF THIS BOOK MAY BE REPRODUCED IN ANY FORM, BY
PHOTOCOPYING OR BY ANY ELECTRONIC OR MECHANICAL MEANS, INCLUDING
INFORMATION STORAGE OR RETRIEVAL SYSTEMS, WITHOUT PERMISSION IN WRITING
FROM BOTH THE COPYRIGHT OWNER AND THE PUBLISHER OF THIS BOOK.

© Liberty Academic Publishers 2025

The digital PDF version of this title is available Open Access and distributed under the terms of the
Creative Commons Attribution-Non Commercial 4.0 license (<http://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/>) which permits adaptation, alteration, reproduction and distribution for
noncommercial use, without further permission provided the original work is attributed. The
derivative works do not need to be licensed on the same terms.

adopted by Mariam Rasulan

ISBN: 979-8-89695-061-5

CONGRESS ID

TITLE OF CONGRESS

INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV
"GLOBAL PROSPECTS FOR MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND
EDUCATION"

PARTICIPATION

Keynote & Invited

DATE - PLACE

April 08-10, 2025

Chirchik, Uzbekistan

EDITORS

Prof. Dr. Jabbor Usarov
Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev
Mutabar Meylieva
Kibrio Burieva

ORGANIZATION

Chirchik State Pedagogical University
&
İKSAD-Institute of Economic Development and Social Researches

HONORARY BOARDS

Prof. Dr. Gafurdjan Muxamedov (Rector of CHDPU)
Dr. Mustafa Latif Emek (President of İKSAD Institute)

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA JALB ETISH MASALALARI

Egamberdiyeva Nigora Azizovna

CHDPU, Pedagogika fakulteti

Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0001-1670-7890>

Norova Durdona Yutpulla qizi

CHDPU, Maxsus pedagogika/logopediya

II bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim jarayoniga alohida ta'lim ehtiyojli bolalarni jalb etish, sohaga doir ilmiy izlanishlar va muammolar, inklyuziv ta'lim ishtirokchilari va ularning vazifalari, hamkorlik ishlari hamda kadrlar tayyorlash masalalari haqida fikr yuritiladi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы вовлечения детей с особыми образовательными потребностями в процесс инклюзивного образования, научные исследования и проблемы в этой области, участники инклюзивного образования и их задачи, совместная работа и подготовка кадров.

ABSTRACT

This article discusses the issues of involving children with special educational needs in the process of inclusive education, scientific research and problems in this area, participants in inclusive education and their tasks, collaboration and staff training.

Kalit so'zlar: Inklyuziv, inklyuziv ta'lim, alohida ehtiyojli bola, ta'lim jarayoni, mutaxassislar, inklyuziv sinf, korreksion sinf.

Ключевые слова: Инклюзивное, инклюзивное образование, ребенок с особыми потребностями, образовательный процесс, специалисты, инклюзивный класс, коррекционный класс.

Keywords: Inclusive, inclusive education, child with special needs, educational process, professionals, inclusive class, correctional class.

KIRISH.

Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumiy ta'lim tizimida ta'limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-

tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida bir qator qarorlar ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Inklyuziv ta'lim — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim atamasi fransuzcha *inclusif* so'zidan olingan bo'lib o'z ichiga oladi degan ma'noni anglatadi.

“Inklyuziv ta'lim” atamasi fransuzcha *“inclusif”* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “o'z ichiga oladi” deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'ligi cheklanmagan shaxslarning birgalikdagi ta'limini anglatadi.

Inklyuziv ta'lim - hamkorlikdagi ta'lim, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan bo'lib, “inklyuziv” va “integratsiyalashgan” atamalari ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan falsafada bu tushunchalar orasida farq bor.

O'zbekistondagi inklyuziv ta'lim tadqiqotchisi, yangi Zelandiyadagi Vaykato universiteti doktori Galina Nam, nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktab-internatlarda yoki uyda emas, umumiy ta'lim muassasalarida ta'lim olish ustuvor bo'lishi kerakligini aytgan.

Mamlakatimizning yetuk olim va olimalaridan G'.B.Shoumarov, R.S.Homahmudova, A.Berdieva, O.U.Ablaev, D.S.Qaxarova, U.Y.Fayziyeva, F.U.Qodirovalar inklyuziv ta'lim muassasalarida nuqsonli bolalarga ta'lim-tarbiya berishni nazariy jihatdan o'rgangan.

Shuningdek, rus olimlaridan L.S.Vigotskiy, I.I.Mamaychuk, L.P.Koskovoy, O.S.Nikolskaya, V.C.Manova-Tomova, Y.S.Alyonina, V.S.Muxina, A.A.Bodalyov kabi olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida alohida ehtiyojli bolalarni pedagogik-psixologik korreksiyalash va ijtimoiylashtirish masalalari yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borganlar.

G'arbiy Evropa mamalakatlari va AQSHda inson psixologik xususiyatlari bilan bog'liq tajribalarga asoslangan ilmiy nazariya va yo'nalishlar vujudga keldi va bu orqali imkoniyati cheklangan bolalarning pedagogik-psixologik jihatdan rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu borada J.Bruner, J.Piaje, A.Vallon, S.Xoll, E.Meyerman, K.Byuler, E. Dyurkgeym, D.Lokk va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin.

NATIJALAR.

Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish ularni o'ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e'tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning yoshlari bir xil bo'lsada, lekin ularda rivojlanish darajasi turlicha. Barcha bolalarning individual psixologik, shaxs xususiyatlari, ish qobiliyati, tafakkur va idroki bir-biridan farq qiladi. Shu bois imkoniyati cheklangan bola ta'lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi murakkabroq masalalarni hal etib, inklyuziv sinfda o'qituvchi bolalarning imkoniyatini e'tiborga olgan holda, darslarni shunga muvofiq rejalashtirsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta'sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning uslubiy yo'llaridan foydalansa va bu ishda maktab hamda oila hamkorligini to'laqonli yo'lga qo'ysa dars jarayonining muvaffaqiyatiga erishish mumkin. Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojlanadi, buni L.S.Vigotskiyning ilmiy qarashlariga ko'ra “Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi” - degan fikri bilan tasdiqlash mumkin. Chunki, alohida ehtiyojli bolalar inklyuziv ta'limining samarali tashkil etilishi natijasida: - imkoniyati cheklangan farzandlari mavjud bo'lgan oilalarning moddiy va ma'naviy muammolariga barham beriladi va mahallarda ajratish iskanjasidan qutulishga imkon yaratiladi.

MUHOKAMA.

Inklyuziv ta'limga zamonaviy fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Zamonaviy maktablar barcha bolalarning ehtiyoji va umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlarini inobatga olishi va ularning bilim olishlarini ta'minlashi lozim. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish muhimdir. "Umumta'lim" va "maxsus ta'lim" o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak. Maxsus ta'lim oddiy ta'limning bir qismi bo'lishiga qaramasdan, o'zining o'quvchilari, o'qituvchilari, boshqaruv jamoasi va ta'minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta'lim tizimi amalda qo'llanilib kelinmoqda. Barcha o'quvchilarning talablariga javob beruvchi "Inklyuziv maktab"da bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi. Islohotlar ta'lim maqsadlarining amaliyotini boshqarish mumkin, lekin ularning pedagogik amaliyotini to'g'ridan-to'g'ri boshqara olmaydi. Shu sababdan samarali bo'lishi uchun islohotlar yaxshi muhokama qilinishi va ta'lim tizimi boshqaruvchilar hamda uni amalda qo'llovchilar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. Yuqorida ta'kidlagandek, imkoniyati cheklangan bolalar bilan bog'liq ishlarning holati yetarli maktablarda muvofiqlashtirilmaganligi turli davlat muassasalari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini yanada faollashtirish zarurligini ko'rsatadi. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy ko'niktirish bilan bog'liq bo'lgan, ular hayotini me'yorga keltirish muammolar yechimlarini topishda quyidagilarni amalga oshirish kerak deb o'ylaymiz:

- tug'ma nogironlikni oldini olish, ota-onalarning bunday bolalardan voz kechishi va internat muassasalariga ularning yoppasiga jalb qilinishining oldini olish;
- bu toifadagi bolalarni internat muassasalarini belgilangan yoshga to'lishi munosabati bilan bitirib chiqishi (yoki o'zining oilasiga qaytishi, vasiylik yohud homiylikka berilishi, farzandlikka olinishi, boshqa shakllarda oilaga joylashtirilishi) bilan bog'liq masalalar;
- yaxshilash, imkoniyati cheklangan bolalarni kasb-hunarga o'rgatish uchun o'quv-ishlab chiqarish markazlarini tashkil etish, ishga joylashtirishning huquqiy asoslarini hamda nogiron oila sharoitida tarbiyalanayotgan imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash, ularga har tomonlama ijtimoiy ko'mak berish ko'lamini va sifatini muttasil ko'paytirish hamda kengaytirish;
- imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ma'naviy, ma'rifiy va ijtimoiy rivojlanishiga e'tiborni kuchaytirish, ularni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyasining huquqiy asoslarini mustahkamlash, ijtimoiy yordamni tashkil etishni takomillashtirish;
- ijtimoiy joylashtirilishi shaklidan qat'iy nazar, mazkur toifadagi o'quvchilarni jamiyatga qo'shilishi, ijtimoiy hayot kechirishning mo'tadil shakllariga yaqinlashishiga halaqit beradigan to'siqlarni bartaraf qilish, mustaqil hayot kechirish, iloji boricha me'yordagi ijtimoiy va oilaviy muhitga ega bo'lishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni vujudga keltiruvchi huquqiy dasturlar ishlab chiqilishi kerak.

XULOSA.

Inklyuziv ta'lim bu barcha o'quvchilar, shu jumladan imkoniyati cheklanganlar ham o'z hududlaridagi umumta'lim maktablarida oddiy sinflarda, yoshlariga muvofiq bilim olish uchun kerak bo'lgan yordamni olganlari va maktab hayotidagi barcha jabhalarda ishtirok etishlari hamda o'z hissalarini qo'shishlarini anglatadi. Islohotlar ta'lim maqsadlarining amaliyotini boshqarishi mumkin, lekin ularning pedagogik amaliyotini to'g'ridan-to'g'ri boshqara olmaydi. Shu sababdan samarali bo'lishi uchun islohotlar yaxshi muhokama qilinishi va ta'lim tizimi boshqaruvchilari hamda uni amalda qo'llovchilar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. Inklyuziv ta'limni iloji boricha oldinroq boshlangani ma'quldir. Asosiy ehtiyoj boshlanganligi zahoti, aralashuv uchun darrov chora ko'rish kerak. Bu bilan tuzilma rivojlanishining kelgusi buzilishlarini oldi olinadi. Yuqori malakali o'qituvchilar yaxshi yo'lga qo'yilgan qo'llab-quvvatlash tizimi va moliyalashtirishning muvofiq mexanizmlarida halqiluvchi ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi – imkoniyati cheklangan o'quvchilarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu sharoitda imkoniyati cheklangan o'quvchilarga

integratsiyalash va reabilitatsiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv ta'lim turini tanlash lozim. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatimizda barcha uchun ta'lim olish imkoniyati mavjuddir. Shunday bolalar borki, ularning jismoniy imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramay iste'dodi, qobiliyati, aqliy salohiyati e'tiborga loyiqdir. Shuning uchun ularning kelajagiga befarq qaramaslik, ularni jamiyatimizga, davlatimizga munosib farzandalar qilib tarbiyalash biz pedagoglarning sharaflari va vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. Mo'minova L.R. "Autizm sindromi, uning sabablari, turlari va bartaraf etish metodikalari". Uslubiy qo'llanma. Toshkent "Spectrum Media Group" 2015-yil.
3. Egamberdiyeva, N. A. (2023). Ta'lim klasteri sharoiti–autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion omili sifatida. Konferensiya, 1(1), 154-158.
4. Egamberdiyeva, N. A. Raqamli ta'lim muhitida autizm sindromli bolalarni rivojlantirish. raqamli ta'limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq qilish yo 'llari" mavzusidagi Respublika ilmiyamaliy konferensiyasi.
5. Qodirova, F. U., & Egamberdiyeva, N. A. (2023). Ta'lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalarni tashxislash va korreksiyalash ishlarining mazmuni. Konferensiya, 1(1), 201-205.
6. Egamberdiyeva, N. A., & Raxmatullayeva, M. R. (2022). Inklyuziv ta'limda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari. Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari, 1(1), 163-167